

AMIR TEMUR VA TASAVVUF PIRLARI (ULUG' SARKARDANING PIRLARGA MUNOSABATI)

Qahramonjon Ismoilov

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya: *Maqolada sohibqiron Amir Temurning saltanat tepasiga kelishi, Hoja Ahmad Yassaviy, Shamsiddin Kulol va Sayyid Barakadek valiylarning karomatlari sabab ko'p bora zafar quchganligi borasidagi masalalar tahlilga tortiladi.*

Kalit so'zlar: *saltanat, tasavvuf, pir, karomat, rivoyat, yaldo kechasi, xorijiy tadqiqotlar.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы, связанные с приходом Амира Темура на вершину султаната, успех, во многом обусловленный заслугами таких правителей, как Ходжа Ахмед Яссави, Шамсиддин Кулол и Сайид Барака.*

Ключевые слова: *царство, суфизм, пир (учитель), каромат (маленькие чудеса), повествование, самая длинная ночь в году, зарубежные исследования.*

Annotation: *The article analyzes the issues related to the rise of Amir Temur to the top of the sultanate, the success of many times due to the karomats (little miracles) of Holy men, such as Khoja Ahmad Yasavi, Shamsiddin Kulol and Sayyid Baraka.*

Key words: *kingdom, Sufism, Pir (Master), karomat (little miracles), narration, the longest night of the year, foreign studies.*

Bu yil ulug' bobokalonimiz, jahongashta sarkarda Amir Temur tavalludining 687 yilligi mamlakatimizning barcha ilmiy-ma'rifiy go'shalarida keng nishonlanmoqda. Buyuk siymoning tarixda tutgan o'rni mustaqillik sharofati tufayli yanada chuqur va keng o'rganildi. Bugungi kunga kelib ham Amir Temurning ochilmagan qirralari kashf etilib, ular tarixchi va adiblarimiz tomonidan maqolalar, dissertatsiyalar va badiiy asarlarda o'z aksini topmoqda.

Butun dunyoga ma'lum va mashhur zot Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336-1405) asos solgan yirik va qudratli davlat tumuriylar saltanati bir necha yillar butun dunyoga o'z qudratini namoyon etib keldi.

Amir Temur saltanatida adolat tug'i yuqori ko'tarilgan edi. U qanchalik qattiqqo'l, shijoatkor hukmdor bo'lmasin va o'zi mansub bo'lgan hukmron tabaqa manfaatlarini ko'zlamasin, u hamisha adolat, haqiqat yo'lini mahkam tutib, qonunchilik tamoyillariga qat'iyan amal qilgan holda siyosat yurgizishga, el-ulus manfaatlarini himoya qilishga bor kuch g'ayratini safarbar etdi.

Amir Temurning zamondoshlari uni ilmu irfon, din va ma'rifat ahliga nihoyat darajada yuksak ehtiromda bo'lganligini, ular bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularning dono maslahatlari va tavsiyalarini oliy darajada qadrlaganligini e'tirof etganlar. Misol

tariqasida tarixchi Ibn Arabshohning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: *“U sayyidlarni e'zozlab, karomatlar sohiblari bo'lgan valiy zotlarni izzatu ikromli qildi, ilmu fanni va uning ahllari hurmatini oshirib (ularga) muruvvatini sohib, martabalarini ulug'ladi...”*

Saltanatda hukumatning ichki va tashqi qonun-qoidalariga amal qilishda adolatli yo'lni tutgan buyuk sohibqiron, o'z atrofiga ma'rifat va ma'naviyat sohiblarini to'pladi⁷. Ularning maslahatlariga quloq tutdi. Uning huzurida ko'plab allomalar bo'lib, ilm-fanni ravnaq toptirish bilan birgalikda madaniy va ma'naviyat masalalarni hal etishda yaqindan ko'mak berganlar. Ayni shu damda islom peshvolari (tasavvuf pirlari — Q.I.) ga ham alohida hurmat ko'rsatgan bo'lib, ularning karomatlari bilan ko'plab jangu jadallarda g'oliblikni qo'lgan kiritgan.

U o'z davrining mashhur ilm va tariqat peshvolari bo'lgan shaxslar Shamsiddin Kulol⁸ va Sayyid Baraka⁹ singari ulug' pirlarning etagini tutib, ular bilan kengashgan holda saltanatni boshqargan. Shuningdek, Xoja Ahmad Yassaviydek valiylarning qadamjoylariga o'z hurmat-ehtiromini yuksak darajada ko'rsata bilgan ulug' inson bo'lgan.

Amir Temurning pirlaridan bo'lgan Shamsiddin Kulol haqida to'xtaladigan bo'lsak, Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida yozilishicha, Shamsiddin Kulol Amir Tarag'ayning piri bo'lgan. Ali Yazdiy bu haqda ushbu fikrlarni keltiradi: *“U qadrlı shayx Shamsuddin Kulolga sidqidildan ixlos qilardi va uning muborak qabriga (ziyosat uchun) tez-tez borib turardi”*. Manbalarda Shamsiddin Kulol qachon va qayerda tug'ilgani haqida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. Sayyid Amir Kulol va Shamsiddin Kulol (1305-1370) ustoz-shogird bo'lganliklarini tarixchilar yaxshi biladilar. Ikkovlari zamondosh va tengdosh bo'lganlar. Shuningdek, Bahouddin Naqshbandning (1318-1389) ustozlaridan biri Shamsiddin Kulol bo'lganligi tarixdan ma'lum.

Shamsiddin Kulol xojagon-naqshbandiya tariqatiga ixlos qo'ygan. U Buxoroning Suxor qishlog'iga borib, Sayyid Amir Kulolga shogird tushadi va tasavvufga oid bilimlarni o'zlashtiradi.

Lekin ba'zi xorijiy olimlar bu ikki Kulolni bir shaxs deyishgan. V.Bartold, V.Masson, va G.Pugachenkova kabilar shu fikrni bildirganlar. Aslida, ular “kulol” nisbasidagi ikki shayx bo'lib, biri buxorolik, ikkinchisi esa shahrisabzlik, kulollar bo'lishgan¹⁰.

Shayx Shamsiddin Kulol Amir Temurga ko'p masalalar bo'yicha maslahatlar bergan. Shu sababli manbalarda Sohibqironning: “Saltanatdan qo'lga kiritgan barcha narsam va mustahkam makonlarni fath qilishimning hammasi Shamsiddin Faxuriy (Kulol)ning duosi

⁷ Qarang: Маънавият юлдузлари. Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар. // Масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев. – Тўлдирилган қайта нашр. - Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1999. 400 б. 148-бет.

⁸ Qarang: Ўзбекистон энциклопедияси, “Ш” ҳарфи. 27-бет.

⁹ Qarang: Ўзбекистон энциклопедияси, “С” ҳарфи. 45-бет; Хилда Хукхем. Етти иқлим султони. – Т.: 1999. 53-бет; DeWeese, Devin A., “Sayyid Baraka”, in: *Encyclopaedia of Islam, THREE*, Edited by: Kate Fleet, Gudrun Krämer, Denis Matringe, John Nawas, Everett Rowson. Consulted online on 28 April 2017.

¹⁰ <http://hidoyat.uz/movarounnahr-ulamolari/1416-sayyid-amir-kulol.html>

tufaylidir”, degan soʻzlarni koʻp takrorlagani keltiriladi. Shayx Shamsiddin Kulol Amir Temur Movarounnahr taxtiga oʻtirganidan etti oy oʻtgach, 1370 yil vafot etgan.

Amir Temur Shamsiddin Kulolga yuksak ehtirom koʻrsatib, 1373 yili hozirgi “Dorut-tilovat” yodgorlik majmuasidagi qabri ustida muhtasham gumbaz barpo ettiradi va otasi Muhammad Taragʻayning muborak xokini ham shu yerga koʻchirtirganligini tarixdan bilamiz.

Amir Temurning yana bir piri Mir Sayyid Baraka haqida fikr yuritadigan boʻlsak, u zot ham Amir Temurning maʼnaviy maslahatgoʻyi va duogoʻyi boʻlgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning maʼlumot berishicha, Mir Sayyid Baraka asli makkalik boʻlib, Amir Temur bilan dastlab Termiz shahrida uchrashgan. Makka va Madinaning vaqf¹¹larini undirish uchun Balxga Amir Husayn huzuriga kelgan. Amir Husayn u talab qilgan mablagʻni berish u yoqda tursin, hatto Sayyid Barakaga iltifot ham koʻrsatmagan.

Shundan soʻng u bunday sovuq munosabatdan xafa boʻlib, Termizga qarab ketadi va Termiz yaqinida Amir Temur bilan uchrashadi. Amir Temur u talab qilgan mablagʻni ortigʻi bilan beradi. Sayyid Baraka esa Amir Temurga nogʻora bilan bayroq tortiq qiladi. Amir Temur 1370 yil saltanatni qoʻlga olgach, Andxoʻy (Afgʻoniston) viloyatini (barcha qishloqlari bilan) Sayyid Barakaga “iqto”¹² tarzida inʼom qiladi.

Sayyid Baraka Sohibqironning Mozandaron, Dashti qipchoq harbiy yurishlarida unga hamroh boʻlgan, qoʻshinning ruhini koʻtargan. U harbiy safarlarga qatnashmagan paytda Samarqand va Andxoʻyda yashagan.

Sayyid Baraka 1404 yil qishida ogʻir kasallikdan soʻng vafot etadi. Bu xabarni eshitgan Amir Temur Sayyid Barakaning xokini Andxoʻyda dafn etishni buyuradi. 1409 yili Shohrux Mirzo Movarounnahr taxtini Xalil Sultondan tortib olgach, Sayyid Barakaning xokini Andxoʻydan Samarqandga keltirib, Amir Temur maqbarasiga dafn ettiradi...

Amir Temur koʻchmanchi turkiylarning ulugʻ piri, buyuk bobokalonimiz, ulugʻ valiy zot Xoja Ahmad Yassaviy va uning izdoshlariga ham ixlos qoʻygan edi.

Rivoyatlarda aytilishicha, bir kuni Xoja Ahmad Yassaviy Amir Temurning tushiga kirib, quyidagi hikmatli toʻrtlikni har doim jangga kirishdan avval yetmish marta ihlos bilan oʻqisa, albatta gʻalaba qozonishining xabarini beradi:

Yaldo kechani shamʼi shabiston etkon,

Bir kechada olamni guliston etgan.

Mushkul ishim tushubdir oson etgil,

Ey, barchaning mushkulini oson etkon.

Buyuk Temur maʼnaviy va ruhiy jihatdan Yassaviyga ham yuksak ehtiromda boʻlganligining isboti yuqoridagi rivoyatdan koʻrinib turibdi. Amir Temurning bu tushni

¹¹ “Вақф” haqida qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “В” ҳарфи. 450-бет. Elektron maʼlumot.

¹² Иқтоъ – чек, тақсимлаб берилган ер; ҳадя, мукофот қилинган ер майдони. Маʼlumot uchun qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “И” ҳарфи. 264-бет. Электрон маълумот.

ko'rishi undagi ruhiyat olamining musaffoligidan, ma'naviy kamolotga yetganligidan dalolat emasmi?!

Tarixdan ma'lumki, Xoja Ahmad Yassaviyning izdoshlaridan biri bo'lgan Zangi Ota (*asli ismlari Oyxo'ja ibn Toshxo'ja bo'lgan — Q.I.*) maqbarasi Ahmad Yassaviy maqbarasidan avval qurilgan. Chunki Oyxo'ja ibn Toshxo'jani chaqaloqlik vaqtida u zot istiqbollariga olib kelganlarida, “Mendan oldin shu go'dakka maqbara qurilsin” deb duo qilgan ekanlar. Rivoyatlardan ma'lumki, Amir Temur Turkistonda Xoja Ahmad Yassaviyning maqbarasini qurishni boshlaganida, erta tongda maqbaraning dastlabki poydevorlari buzilib ketgan bo'ladi. Bu holat har kuni takrorlanavergach, tungi soqchi qo'yiladi. Erta tongda ko'k rangli ulkan hokiz kelib, shoxlari bilan yana poydevorni yer bilan bitta qilib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. O'sha voqeadan hayratda qolgan soqchilar Amir Temurga xabar beradilar. Sohibqiron buning sinoatiga tushunolmay qoladi. Bir kuni tong saharda Amir Temurning tushiga Xoja Ahmad Yassaviy kirib, avval Zangi Otaning maqbarasi qurilishini aytadi va bu o'sha vaqtda qilingan duoning ijobati ekanligini ta'kidlaydi. Bu yerda rivoyatga asoslangan ma'lumot keltirilgan bo'lsa-da, ushbu rivoyat valiylarning duosi payg'ambarlarnikidan keyingi darajada ijobat bo'lishiga shubxa yo'qligidan dalolat beradigan haqiqatni tan olish jihatidan muhimdir. Chunki Amir Temurdek buyuk zot Xoja Ahmad Yassaviydek buyuk valiy hurmati yuzasidan ushbu xayrli ishga kirishgan bir vaqtda, taqdiri azal buyrug'i bo'lgan bu bashorat yanglig' haqiqatga tan bermasligining iloji yo'q edi. Amir Temur ushbu ko'rgan tushida ayon bo'lgan ishora tufayli Turkistondagi Yassaviy maqbarasi uchun atalgan g'ishtlarni askarlari tomonidan qo'lma-qo'l qilib, Toshkentgacha (*hozirgi Zangi Ota maqbarasi hududigacha — Q.I.*) yubortirganini manbalarda o'qiymiz¹³. Zangi Otadek valiy zot ham o'z piri duosining ijobat bo'lishini istab, “erkalik qilganliklari”ni qanday tushunmoq kerak?! Bundan shu dalolat beradiki, valiylik darajasiga yetishgan muriddlar ham bu dunyodan rixlat qilsalar-da, ushbu foniyy dunyoda ham dam tushga kirib, dam biror bir jonzot shakliga kirib karomat ko'rsatishlari mumkinligini inkor qilmaymiz va bunga haqli ham emasmiz. Amir Temur agar oddiy bir inson bo'lganida, ehtimol bu voqea sodir bo'lmagan bo'larmidi?!

Demak, kimningdir tushiga Payg'ambar (s.a.v.)¹⁴ va valiylar kirsam hamda unga biror-bir ishning bashorati aytilsa, u inson garchi valiy bo'lmasa-da, bu narsa valiylarning xayrixohligiga va yuksak e'tiboriga sazovor inson ekanligidan dalolat beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Islom olami vakillari Amir Temurdek inson haqida so'z ketganida, “hazrat” so'zini bejizga qo'shib aytmaydilar. Chunki bu zot ana shunday piri murshidlarning, ya'ni Ahmad Yassaviy, Shamsiddin Kulol va Sayyid Barakadek

¹³ Bu haqda qarang: Занги Ота (тарихлари, ривоятлар, кароматлар). –Т.: Мовароуннаҳр. 2001. Тузатилган қайта нашр. Нашрга тайёрловчилар А.Мусабеков ва бошқ. 23-27 бетлар.

¹⁴ Amir Temur forslar yurtini zabt etgan, Sheroz ahlining qilgan bir noto'g'ri ishi uchun ularni butkul qirib yuborish payida turgan bir vaqtda tushiga Payg'ambar (s.a.v.) kirib, bu yo'ldan qaytarganliklari haqida manbalarda o'qiymiz. Bu haqda qarang: С.С.Бухорий. Табаррук зиёратгоҳлар. Т.: “Ёзувчи”. 1993. Б. 48. 32-бет.

valiylarning chin ma'nodagi izdoshi va ularga sadoqatli murid bo'lgan desak, xato bo'lmas.

Buyuk ajdodimiz bo'lmish Amir Temur ma'rifatparvar, adolatparvar va yuksak ma'rifatli inson bo'libgina qolmay, tasavvuf va uning pirlariga yuksak hurmat-ehtirov ko'rsatuvchi, ularning duolari va maslahatlari bilan ish tutuvchi ulug' zot bo'lgan. U yoshligidan to umrining oxiriga qadar valiylarga va ulug' ma'rifatparvar zotlarga o'z hurmatini hamda yuksak ma'nodagi xayrixohligini namoyon etib kelgan va ularning duo va ishoralari bilan buyuk maqsadlarga erishgandir.

Shuning uchun Amir Temurning ulkan saltanatini o'z davrining barcha xalqlari bilib, tan oldilar va xalqaro maydonda ham o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lgan buyuk shaxs, ya'ni sohibqiron sifatida tarixda qoldi.

So'ngso'z sifatida shuni ta'kidlash kerakki, Amir Temurdek zotlar bu dunyoga bejizga kelmaydilar va Payg'ambar (s.a.v.) izdoshlari bo'lgan tasavvuf pirlarini bejizga yuksak qadrlamaydilar. Chunki Amir Temur kabi sohibqironlar ham tasavvuf ahlining (*daraja jihatidan ma'lum foiz hisobidagi* — Q.I.) vakillaridir. Shu sababli, ularni har doim va har yerda yuksak ehtirov bilan yod etmoq hamda ulug' so'zlar ila e'tirof qilmoq kerakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. –Т.: (Электрон манба)
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. - Т.: (Электрон манба)
3. Хилда Хукхем. Етти иқлим султони. – Т.: 1999. (Электрон манба)
4. М.Иванин. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. - Т.: “Фан”. 1994. Б. 240. (Электрон манба)
5. DeWeese, Devin A., “Sayyid Baraka”, in: *Encyclopaedia of Islam, THREE*, Edited by: Kate Fleet, Gudrun Krämer, Denis Matringe, John Nawas, Everett Rowson. Consulted online on 28 April 2017.
6. С.Бухорий. Табаррук зиёратгоҳлар. - Т.: Ёзувчи. 1993. Б. 48.
7. Занги Ота (тарихлари, ривоятлар, кароматлар). –Т.: Мовароуннахр. Тузатилган қайта нашр. Нашрга тайёрловчилар А.Мусабеков ва бошқалар. 2001. Б.31.
8. Маънавият юлдузлари. Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар. // Масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев. – Тўлдирилган қайта нашр. - Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1999. 400 б.
9. Ismoilov Qahramon. (2023). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING VALIY ZOTLARGA MUNOSABATI. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC*

CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS, 1(11.02), 345–347. <https://www.myscience.uz/index.php/issue/article/view/228>

10. Ismoilov Kahramonjon. (2022). SUFI WOMEN IN ISLAM (on the basis of foreign researches). *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact Factor: 7.429*, 11(12), 429–431.

<http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1475>

11. Ismoilov Kahramonjon. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SULAYMAN BAKIRGANI AND "BOOK OF BAKIRGAN" BASED ON FOREIGN SOURCES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact Factor: 7.429*, 11(09), 402–405.

<http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1318>